

QASHQADARYO VOHASI MAVSUM -MAROSIM QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS POETIKASI



Oygun Axmedova

Yunus Rajabiy nomidagi

o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
professori, filologiya fanlari nomzodi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541317>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasi mavsumiy marosim qo‘shiqlari va dehqonchilik bilan bog‘liq folklor an‘analari folklorshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Tadqiqotda xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy qatlamlaridan biri bo‘lgan marosim qo‘shiqlarining tarixiy ildizlari, ularning islomgacha bo‘lgan e‘tiqodiy qarashlar bilan bog‘liqligi hamda keyingi davrlarda islomiy tasavvurlar bilan sintezi yoritiladi.

Matnda B.Sarimsoqov tomonidan taklif etilgan mavsumiy marosim folklorini tasniflash tizimi asos qilib olinib, Qashqadaryo hududiga xos dehqonchilik marosimlari va ular bilan bog‘liq qo‘shiq hamda aytimlarning funksional va poetik xususiyatlari tahlil qilingan. Xususan, Bobodehqon obrazi, uning xalq tasavvuridagi homiylik va baraka beruvchi ramziy mohiyati, shuningdek “Sust xotin” kabi yomg‘ir chaqirish marosimlarining ritual strukturalari va ijro shakllari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo vohasi, mavsumiy marosimlar folklori, marosim qo‘shiqlari, Bobodehqon obrazi, Sust xotin marosimi, yomg‘ir chaqirish marosimiritual an‘analar

Annotation. This article analyzes the seasonal ritual songs and agricultural folklore traditions of the Kashkadarya oasis from the perspective of folkloristics. The study highlights the historical roots of ritual songs, which represent one of the most ancient layers of oral folk creativity, their connection to pre-Islamic belief systems, and their later synthesis with Islamic worldview elements.

Based on the classification system of seasonal ritual folklore proposed by B. Sarimsoqov, the article examines agricultural rituals specific to the Kashkadarya region, as well as the functional and poetic features of related songs and chants. In particular, it explores the image of Bobodehqon, its symbolic meaning as a patron and bringer of abundance in folk imagination, as well as the ritual structures and performance forms of rain-invoking ceremonies such as “Sust xotin.”

Keywords: Kashkadarya oasis, seasonal ritual folklore, ritual songs, Bobodehqon image, Sust xotin ritual, rain-invoking ceremonies, ritual traditions.

Qashqadaryo vohasi marosim qo‘shiqlarining badiiy matnida insoniyatning paydo bo‘lishidan tortib, asrlar osha shakllanib kelgan tarixi va orzu intilishlari talqin qilingan. Xalq qarashlarining badiiy tadrijida Qashqadaryo vohasi marosim qo‘shiqlarining tutgan o‘rni, spetsifikasi, tarixiy asoslari, poetikasi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari shuningdek, janr tabiatidagi struktural, funksional o‘zgarishlarni ilmiy nuqtai nazardan tahlil etish asosida

muayyan xulosalarga kelish folklorshunoslikning tadqiq etilishi zarur bo'lgan dolzarb masalalari jumlasidandir.

Folklor qo'shiqlarini bevosita ijrochilar og'zidan-og'izga jonli ijro sharoitlarida yozib olish ishlari XX asrning 20-yillaridan boshlangan.

Mavsumiy marosim qo'shiqlari o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotining muhim qismini tashkil etadi. O'zbek folklorshunos olimi B.Sarimsoqov o'zbek mavsumiy marosimlar folklorini quyidagicha tasniflaydi:

1. Qishki marosimlar folklori.
2. Bahorgi marosimlar folklori.
3. Yozgi marosimlar folklori.
4. Kuzgi marosimlar folklori [1.40].

Yuqoridagi tasnifdan tashqari olim mavsumiy marosimlar bilan bog'liq folklor janrlarini tematik va funksional xususyatlariga ko'ra ikki guruhga bo'ladi. Birinchi guruhga faqat mavsum bilan bog'liq marosimlar «Sust xotin», «Choy momo», «Yas-yusun» kabi folklor janrlarini kiritadi. Ikkinchi guruhga - mavsumiy mehnat, xo'jalik yuritish tarzi bilan bog'liq «Loy tutish», «Shox moylar», «Obla baraka» marosimlar folklorini kiritadi[2.155].

Biz ham Qashqadaryo vohasi mavsum marosim qo'shiqlarining o'ziga xos poetikasini yuqoridagi tasnifdan kelib chiqqan holda o'rganishni ma'qul topdik. Mavsum-marosim folklori juda kenga qamrovli bo'lgani uchun, bir bo'lim doirasida uni to'liq o'rganish imkoniyati yo'q. Shu sababli biz, tadqiqotning imkoniyatidan kelib chiqib faqat dehqonchilik bilan bog'liq urf-odat, marosimlar va ulari bilan bog'liq qo'shiq va aytimlarni tahlilga tortishga qaror qildik.

Dehqonchilik qo'shiqlari - xalq og'zaki ijodining qadimiy namunalaridan birini tashki etadi. Bu turdagi aytimlar inson faoliyatining turli jabhalarida ijod etilgan. Masalan: yer haydash, tegirmon yanchish. Xususan, bu aytimlar mehnat jarayonini bir maromda uyushqoqlik bilan bajarishga ko'mak berishi qatorida yana dehqon qalbiga ko'tarinkilik kayfiyatini jo qilish uchun xizmat qilgan.

Dehqonchilik qo'shiqlarining eng ko'p namunalari go'zal bahor fasli bilan bog'liq. Marosimlarning aksariyati ko'hna hayotga taalluqli bo'lib, yil fasllari va mehnat mavsumlariga bog'liq holda o'tkazilgan.

Qadimdan o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan Qashqadaryo aholisi ajdodlari tomonidan meros qilib qoldirilgan turli-tuman urf-odatlar, marosimlar va udumlarga qat'iy amal qilishgan, ularning magik (sehrgarlik) kuchiga ishonishgan. Ijtimoiy hayotda katta o'rin tutgan bu marosimlarda, avvalo dehqonchilik bilan bog'liq udum va marosimlarning ko'plari o'zining kelib chiqish ildizlari islomgacha bo'lgan tabiat hodisalarini ilohiylashtirish, osmon va yer ilohlariga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan. Shuningdek, ko'plab ziroat urf-odat va marosimlaridan islomgacha bo'lgan e'tiqodiy qarashlar bilan islomiy qarashlarni qorishgan sinkretik tarzda ham uchratamiz.

Bajarilayotgan har bir irim, urf-odat zamirida voha ahlining dehqonchilik bilan bog'liq asriy hayotiy tajribalari, ziyraklik bilan uzluksiz kuzatishlari jamlangan bo'lib, ularning tub mohiyatiga e'tibor berilsa, ezgulikning hayotbaxsh nurlariga talpinish, dehqonchilikda samarali hosil yetishtirish, odamlarni hosil yetishtirishda bo'lishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklardan ogoh etish, halol mehnatni rivojlantirish, tabiat ne'matlarini ko'paytirish va avaylab asrashdan iborat bo'lgan.

Dehqonchilik bilan bog'liq xalq urf-odatlar va marosimlari dono xalqimiz tafakkurining g'aroyib mo'jizalaridan biridir. Ajdodlarimiz necha-necha asrlar ularga amal qilish bilan birga ularga taalluqli qoidalar, duolar, aytimlar va alomatlarini ham yaratishgan.

Axborotchilarimizning ma'lumotlaridan shu narsa ma'lumki, dehqonchilikning homiysi Bobodehqon halol mehnat bilan kun ko'ruvchi, boshqalar haqidan hazar qiluvchi, dehqonlarga homiylik qiluvchi, ularning mehnat unumiga unum qo'shuvchi pir hisoblangan. U ayni sahar paytida dehqonlar ko'targan xirmonlarda paydo bo'lib, tong sahar turgan dehqonlarning xirmoniga baraka ulashib ularning yetishtirgan hosilini to'kilib, sochilib isrof bo'lishdan asrar emish. Biz folklor ekspeditsiyalarimiz davrida axborotchilardan Bobodehqon obrazi dehqonchilik bilan bog'liq barcha marosimlarda tilga olinishi haqida juda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bobodehqon ramzi sifatida ko'p o'rinlarda soqoliga oq tushgan keksha kishi, yoki shu yerning oqsoqoli ish bajargan ekan. Kuz yoki erta bahorda dalaga qo'sh tushganda, ariqlarni tozalashda, urug' ekishda, g'alla o'rishda, xirmondagi donni sovurishda birinchi ishni badavlat, bola-chaqasi, nevarachevarasi ko'p, ishi doim oldinga ketadigan tadbirkor, obro'li kishi boshlab bergan¹.

Shuni ta'kidlash kerakki, axborotchilarimizning xabarlariga qaraganda, Qashqadaryo vohasida Bobodehqon timsolini bajaruvchi shaxslar oldindan belgilab qo'yilmagan, ya'ni bu vazifani hamisha bir kishi bajarmagan. Shu boisdan ham bu vazifa otadan o'g'ilga qoldirilmagan. Yakkabog' tumanidagi Xo'jailg'orlik qishlog'ida, agar qishloqda eshon kishi yashasa, ko'proq Bobodehqon vazifasini o'sha kishi bajargan. Agar eshon olamdan o'tsa, uning o'rmini katta o'g'illaridan biri bajargan².

Dehqonchilikda Bobodehqon kultidan boshqa obrazlar ham borki, u bugungi kunga qadar Qashqadaryo viloyatining ko'plab tumanlarida yashab kelayotganiga guvoh bo'ldik. Bahor oylarida yog'ingarchilik kamaysa, ayniqsa, oq ekinlar suvsirab, o'sishdan qolaversa, ikki-uch kishi uyma-uy kirib pul yiqqan. Yig'ilgan pulga semiz ho'kiz yoki qo'y sotib olingan. Qurbonlikka atalgan jonliq ariqqa yaqin joyda so'yilgan va shu yerda yero'choq qazilib, qozon osilgan. Taom shu joyning o'zida tayyorlangan. Ovqat pishgandan so'ng qishloqning katta-yu kichigi taklif etilgan. Ovqatdan keyin qishloq mullasi «Qur'on» tilovat qilgan va barcha ollohdan yomg'ir so'rab iltijo qilishgan. Qozonning tagida qolgan birmuncha ovqatni yomg'ir tangrisi haqqi deb suvga oqizishgan. Mahalliy xalq yomg'ir tangrisiga bag'ishlab turli marosimlar o'tkazishgan. Axborotchimizning ta'kidlashicha, sun'iy sug'orilmaydigan hududlarda bahor oylari yomg'ir yog'may, qurg'oqchilik boshlansa, «Sust xotin», «Sut xotin», «Suv xotin», «Chala xotin» kabi bir necha nomlar bilan yuritiluvchi yomg'ir chaqirish marosimlari o'tkazilgan [3.160].

Marosim dastlab tayyorgarlik bosqichiga hozirlik ko'rishdan boshlangan. Avvalo, marosimni boshqarib boruvchi uddaburon, tashkilotchi mutasaddi tayinlangan. Albatta, marosimni o'tkazish uchun u-bu narsalar zarur bo'lgan. O'zbek – laqaylarda bitta bo'sh qovoq, ikkita qamish naycha, ikkita toshbaqa, bitta eshak va xayr-sadaqa solish uchun bitta xurjun hozirlansa, Paxtakor tumanida yashovchi qarluqlarda yog'och qo'g'irchoq, eski ayol kuylagi, eski ro'mol, Sho'rchi tumanidagi o'zbek – qarluqlarda erkak – ayol kuylagi, yog'och yoki loydan bo'lgan tovoq Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi, G'uzor kabi tumanlarida yashovchi aholi yog'och qo'g'irchoq, eski ayol ko'ylagi, kapach, ikki-uchta toshbaqa, toshbaqalarni yuqoriga ko'tarish uchun tayoqlar, eshak-xurjun va boshqa narsalar zarur bo'lgan[4.43].

Hozirgi Muborak tumanidagi Qarluq qishlog'ida toshbaqani ushlab, oyog'idan ip bilan bog'lashgan va uyning tomiga yoki daraxt shoxiga osib qo'yishgan³, ularning tushunchasicha, qiynalayotgan toshbaqalarni ko'rib, tangri yerga yomg'ir jo'natar ekan[3.165].

¹ Muallifning shaxsiy folklor arxivi. Koson. 2026-yil.

² Muallifning shaxsiy folklor arxivi. Koson. 2026-yil.

³ Muallifning shaxsiy folklor arxivi. Muborak tumani. 2026-yil.

Sust xotin Qamashi tumanidagi Qirg'izsaroy qishlog'ida «Tuz xotin» ham deyilgan, marosimda qishloq yigitlari ishtirok etishgan. Bu marosimning ikki xil ko'rinishi mavjud bo'lgan. Birinchisi, diyonatli insonlardan tashkil topgan xonadonning to'ng'ich o'g'li ustiga chopon yoki ko'rpacha (ayolning eski kiyimi) yopilgan. Albatta, yigit serfarzand, saxiy va mehribon bo'lishi zarur ekan. U boshchiligidagi yigitlar har bir hovliga navbatma-navbat kirib chiqqanlar. Izidan esa bir to'da bolakaylar chopib yurishgan. Hovliga kirayotganda marosimni boshqarib boruvchi yigit quyidagicha qo'shiq aytgan

Tuz xotin-a, Tuz xotin,

Osmon chokin buz xotin.

Havolarni jovdir-a,

Ariq to'lsa, so'z xotin.

Tuz xotin-a, Tuz xotin,

Dala – dashtni kez xotin.

Bu baytni esa marosim ishtirokchilari qo'shiqchiga qo'shilib, jo'r bo'lib aytishadi:

Xirmon uysak, tuz xotin,

Qo'chqor so'ysak, tuz xotin,

Seni duo qilamiz,

Jovmir jovdir, tuz xotin.

Uy egasi eski chopon yoki kuylak yopingan yigitning ustidan suv quyib, xayr-sadaqa bergan. Beriladigan narsalar asosan, non, don, qand-qurs, badavlatroq xonadon bo'lsa, qo'y-uloqdan iborat bo'lgan [4.44].

Yosh tadqiqotchi X.Ochilovning Qamashi tumani Boyuli qishlog'ida olib borgan tadqiqotlarida “Sust xotin” marosimining ikkinchi turi ham yigitlar tomondan ijro etilganligi haqida ma'lumotlarga uchraymiz. Bunda janda (eski kiyim) yopingan yigit vazifasini qo'g'irchoq bajargan. Qo'g'irchoqni ayollarning eski-tuski narsasi bilan bezashgan.

Bosh qismiga esa toshbaqaning oyog'idan ip bilan bog'lab osib qo'yishgan. Qo'g'irchoqni balandga ko'tarishib, hovlima-hovli kirishgan va quyidagi qo'shiqni kuylashgan:

Havolarning egasi, sus xotin,

Bahor oyi bekasi, sus xotin.

Sen mehribon enasan, sus xotin,

Ko'k toqining erkasi, sus xotin.

Bulutlarni qamchilat, sus xotin,

Ekinlarga tomchilat, sus xotin.

Marosim qatnashchilari hovlilarga kirganda, uy egasi toshbaqaning ustidan suv quygan. Axborotchimizning aytishicha, toshbaqani tayoq uchiga bog'lab olib yurib, uning ustidan suv sepish, Sus xotinga, «sen toshga jon ato qilguvchisan, mana bugun unga suv ham kerak, ham oziq kerak. Bizga suv (yomg'ir) bersang, bu ham to'yadi, ya'ni dala-dashtdagi barcha jonzot seni sharaflaydi», degan ramziy ma'noni ifodalagan.

Bunda ham yigitlar uy egalari bergan hayr-ehsonlarni olishgan. Marosim oxirida esa ariq chetiga joy qilib, qishloq ahli bilan birgalikda yig'ilgan pishiriqlarni o'rtaga qo'yib, iste'mol qilishgan [4.45].

Chiroqchida o'tkazilgan “Sus xotin” marosimida ayollar ham qatnashishgan. Bosh rolni ijro etuvchi ayol o'zidan tinib-tinchigan, uvali-juvali, diyonatli, shuningdek, oilada to'ng'ich farzand sifatida tug'ilgan bo'lishi kerak ekan. U boshiga chakmon yopinib olgan va hovlilarga kirganda shirali ovoz bilan quyidagi misralarni aytgan:

Shamol yeldi bilmadingmi, sus xotin,

Qorlar ketdi bilmadingmi, sus xotin?
 O't-o'lanlar entikkan Kun olovidan,
 Qir-adirda kezmadingmi, sus xotin?
 Bizlar guvoh, gunohsizdir maysalar,
 Tomchi bersang, yuzlarini chaysalar.
 Arpa-bug'doy to'liq bo'lsin, sus xotin,
 Katta-kichik ko'ngli to'lsin, sus xotin.

Chakmon yopingan ayolning ustidan suv quyishgan. Shu qo'shiq aytilsa, diyonatli va sahovatli to'ng'ich farzandning iltijosini Sus xotin tez ilg'ab olar va yomg'ir berar emish.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, ayol ustidan suv sochilganda, unga ergashib yurganlar: «Yomg'ir yog'di, yomg'ir yog'di» deb xursand bo'lishgan. Shundan keyin uy egalari ataganini bergan. Marosim qatnashchilari qishloqni aylanib chiqqach, yig'ilgan xayr-sadaqani o'rtada baham ko'rishgan va Sust xotin sharafiga duolar o'qishgan [4.46].

Qashqadaryo vohasida olib borgan folklor ekspeditsiyalarimiz shuni ko'rsatdiki, bu marosim "Suv xotin" nomi bilan ham bugungi kunda vohaning ko'pgina mintaqalarida kattalar tomonidan emas balki, ularning tashabbusi bilan yosh qizaloqlar tomonidan amalga oshirilib kelmoqda. Kattalar o'tkazilayotgan marosimning magik xususiyatiga ishonib, bolalarning gunohi yo'q, ularning iltijolari Suv xotinga tez yetib boradi va uning sahovatini qo'zg'aydi deb o'ylashgan. Masalan, Qamashi tumanining Berdoli qishlog'ida yil qurg'oqchil kelganda kattalar besh-o'nta qizaloqlarni yig'ib, ularning qo'liga qo'g'irchoq yasab berib, osmonga bulut chiqsa, Suv xotindan yomg'ir so'ratishgan. Chunki qizaloqlar momolaridan o'rgangan qo'shiqlarini hovlida davra tashkil etib aytishgan:

Bahor keldi elga,
 Gullar sochib yerga.
 Tomchilar olib kel,
 Suv xotin, qirga.
 Yomg'ir yog', sochim o's,
 Yomg'ir yog', sochim o's.
 Suv xotin, ivib kel,
 Bulutlarni quvib kel.
 Yomg'iring mo'l bo'lsin,
 O'ralar ko'l bo'lsin.
 Yomg'ir yog', sochim o's,
 Yomg'ir yog', sochim o's.

Qizaloqlar tomonidan «yomg'ir yog', sochim o's» jumlasini jo'r bo'lib aytilayotganda, momolardan biri bolalarning ustidan tomchilatib suv sochgan.

Shuningdek kattalar tomonidan ijro etilgan quyidagi to'rtlikda ajdodlarimiz qurg'oqchilikni ba'zi bir kimsalarning nopokligidan, qallobligidan, zulmkorligidan ranjigan Suv xotinning ishi deb bilganliklari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hosillar mo'l bo'lsin, suv xotin,
 Dehqonning uyi to'lsin, suv xotin.
 Kazzobning uyi kuysin, suv xotin,
 Suv xotin-suvsiz xotin.

Demak, qo'shiq matnida ko'rib turganimizdek, ajdodlarimiz qurg'oqchilikni faqat noxush tabiat hodisasi deb emas, balki suv tangrisining nopok odamlarga nisbatan g'azabi, qahri, qarg'ishi deb ham tushunganlar.

Qurg‘oqchilik paytlari yomg‘ir tilash maqsadida o‘tkazilgan marosimlarning boshida el-yurt tomonidan gunohsiz, halol, pokiza deb tan olingan kishilar: emizikli ayollar, ota-ona ilk mehrini bergan to‘ng‘ich o‘g‘il va qizlar turgan. Bunday kishilar tangrining qalbiga yo‘l topish, u bilan aloqa o‘rnatishdek magik xususiyatga ega deb ishonishgan.

Marosim qatnashchilarining ustidan suv quyish udumi ham marosimning asosiy qismlaridan biridir. Suv tiriklik va poklanish ramzi. Qadimgi qurbonlik marosimining izlarini o‘zida mujassamlashtirgan magik shyo keksa ayol o‘ylagi kiydirilgan qo‘g‘irchoqning ustidan suv quyish gunohlarni yuvish va tangri oldida o‘zini oqlashning timsoli sanalgan [4.49].

“Sust xotin” marosimi haqidagi fikrlarni yakunlar ekanmiz, biz yosh izlanuvchi X.Ochilovanning quyidagi fikrlariga qo‘shilishni lozim topdik. “Yog‘ochdan yasalgan, ayol ko‘ylagi kiygizilgan qo‘g‘irchoqni ko‘tarib aytim aytayotgan ayol yoki yigitni qadimgi shomonlarga ham o‘xshatish mumkin. Ya‘ni marosimdagi bu obrazlar shomonizm ta‘sirida vujudga kelgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas”[4.50]. Darhaqiqat folklorshunos olim Jabbor Eshonqul o‘zining “Folklor: obraz va talqin” nomli kitobida shomonlar haqida shunday yozadi: «Shomon tangrilar bilan gaplashar, odamlarga yo‘l ko‘rsatar, aql o‘rgatar, hokimlik qilar, xastalarga shifo berish yo‘llarini axtarardi. Shomonlarning sehrli karomatlarini ko‘p edi. Mo‘g‘ullarda tog‘ni o‘z o‘rnidan siljitgan shomon, turklarda duo o‘qib, do‘l yog‘dirgan shomonlar haqida afsona bor.... Shomonning asosiy vazifasi marosim (ritual) qo‘shig‘ini aytib, baqirib-chaqirib raqs tushish hamda doira va shunga o‘xshash asboblarni chalib harakat qilishdan iborat [5.36]. Ko‘rinib turibdiki, shomonlarga xos bo‘lgan ba‘zi bir xususiyatlar, belgilar “Sust xotin”ga bag‘ishlab qo‘shiq aytish jarayonida ham kuzatiladi, ya‘ni qo‘g‘irchoq ko‘targan ayol odamlar bilan yomg‘ir tangrisini bir-biriga bog‘lab turuvchi magik vositachi vazifasini bajaradi. Xalq xohish, istagini tangriga yetkazishga intiladi. «Sust xotin» marosimining oxirida qo‘g‘irchoqni kuydirib yuborish yoki eski quduqqa tashlash udumida ham uzoq o‘tmishdagi ajdodlarimizning suv ma‘budalariga qurbonlik qilish marosimining izlari mavjud. Folklorshunos B.Sarimsoqov “sust xotin” marosimini birinchilardan bo‘lib o‘rgangan olim sanaladi. Olimning yozishicha, «Sust xotin» marosimida ko‘tarib yurilgan, keksa ayol kuylagi kiydirilgan qo‘g‘irchoq ... O‘rta Osiyoda qadimda keng tarqalgan qurbonlik qilish rusumining qoldiqlaridan iboratdir»[1.88].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. - Т.,Фан, 1986. – Б.40.
2. Саримсоқов Б. Маросим фольклори // Ўзбек фольклори, очерклар. 1- том. Т., Фан. 1988.– 155.
3. Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. Тошкент. Фан, 2008. - Б.160-175.
4. Очилова Х. Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва маросимлари (Қашқадарё воҳаси миолида). Магистр.дисс. Қарши. 2014. - Б. 43.
5. Жаббор Эшонқул. Фольклор: образ ва талқин. -Қарши: Насаф, 1999. -Б. 36.
6. AXMEDOVA, O. O ‘ZBEK MAROSIM-UDUMLARINING ETNOHUDUDIY XUSUSIYATLARI
7. Ахмедова, О. М. (2010). Освещение фольклорных религиозных мотивов в средствах массовой информации (на примере печати и радиовещания Узбекистана). *Филологические науки. Вопросы теории и практики*, (3), 35-38.
8. Avazova, M. E., & Axmedova, O. M. (2021). TOSHKENT VILOYAT OHANGARON TUMANI YOR YOR QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS POETIKASI. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 196-201.

9. Akhmedova, A. (2021). Historical syncretism of folklore and media. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 335-340.
10. Ахмедова, О. (2026). Соотношение традиции и импровизации в узбекском народном эпосе: Interplay of Tradition and Improvisation in Uzbek Folk Epic. *Journal of national culture*, 2(1), 150-156.
11. Qodirov, M. R., & qizi Aliasqarova, S. R. (2025). THE IMPORTANCE OF SPEECH IN BAKHSHI. *Bulletin news in New Science Society*, 2(6), 11-15.
12. Абдурахмонов, Р. Ю., & Курбанова, У. (2020). Хоразм фольклор и жрочилик санъати. *Oriental Art and Culture*, (II), 31-35.
13. Ахмедова, О. М. (2019). ЗНАНИЯ, ОБЫЧАИ И ОБРЯДЫ О ПРИРОДЕ И ВСЕЛЕННОЙ. *Наука и мир*, 2(4), 28-31.
14. Normurodovich, S. B. (2024). XORAZM DOSTON IJROCHILIGIDA NAG ‘MALARNING AHAMIYATI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(10), 133-136.
15. Safarov, B. N. (2023). DOSTON IJROCHILIGIDA SOZ VA SO ‘Z UYG ‘UNLIGI. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 84-89.
16. Safarov, B. N. (2024). JANUBIY O ‘ZBEKISTON DOSTON IJROCHILIGIDA NAG ‘MALARNING O ‘RNI VA AHAMIYATI. *Inter education & global study*, (10), 529-535.
17. Normurodovich, S. B. (2024). JUFT TORLI CHOLG ‘U SOZLARIDAGI O ‘NG QO ‘L ZARBLARINING O ‘ZARO BOG ‘LIQLIGI VA FARQLI JIHATLARI. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 2(6), 75-79.
18. Safarov, B. (2022). Do ‘mbira sozining tuzilishi, imkoniyatlari va doston ijrochiligida tutgan o ‘rni. *Oriental Art and Culture*, 3(2), 793-798.
19. Mavlonbekova, N., & Abduraxmonov, R. (2022). TURKMAN BAXSHISI “SEVGI VA ISHQ MULKINING SHOHI” MULLANAFASNING “ZUXRA VA TOXIR” DOSTONI TAHLILI. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 408-412.
20. Hayitov, Z. (2021). The place of drum instruments and songs in the art of Bakhshil. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 73-78.